
“SAXOVAT VA KO’MAK” XAYRIYA HISOB RAQAMLARI OCHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-f farmoyishiga asosan Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Qo’shtepa tuman filialida tuman "Mahalla" jamoat fondi qoshidagi "Saxovat va ko’mak" jamg’armasiga milliy valyuta va AQSh dollarida maxsus hisob raqamlari ochildi.

Saxovatli insonlar Ramazon kunlari o‘z xayriya mablag‘larini Qo’shtepa tumani «Mahalla» xayriya jamoat fondi qoshidagi «Saxovat va ko’mak» umumxalq harakati maxsus jamg’armasining Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Qo’shtepa tuman filialidagi quyidagi maxsus hisob raqamlariga o‘tkazishlari mumkin:

Hisob raqami: 20212000804098655003 milliy valyuta so‘m

Hisob raqami: 20212000804098655001 AQSh dollari

MFO: 00803

INN: 202840056

Jamg’arma mablag‘lari koronavirus pandemiyasi va karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko‘p farzandli oilalarga, nogironligi bo‘lgan shaxslarga va yolg‘iz qariyalarga, o‘z daromadini yo‘qotgan vaqtincha ishsiz bo‘lgan jismoniy shaxslarga pul mablag‘lari, kundalik iste‘mol tovarlari, dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan ta‘minlash uchun ishlatiladi.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-27 10:48:21